

- 6) mavjud resurslardan oqilonava samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yish;
- 7) “yashil” energiyadan keng foydalanish bo‘yicha hukumat va hududiy hokimliklar qarorlarini qabul qilish;
- 8) aholi va davlat energiya iste’molida energiya tezamkor texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;
- 9) “yashil” uy va binolar qurish bo‘yicha amaliy taklif va ishlanmalar ishlab chiqish.

Xulosa qilib aytganda, kelajakda iqtisodiyot taraqiyotini innovatsion texnologiyalsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Bu yo‘nalishda esa muqobil energiya manbalaridan foydalanish alohida ahamiyatga ega. Demak, davlatimiz rahbarining yangi qarori asosida bu borada boshlangan ishlar miqyoslari yanada kengayadi, samaradorligi esa ortaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Prezidentning 02.12.2022 yildagi «2030 yilgacha O‘zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-436-son qarori https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/uzbekiston_qanday_qilib_yashil_iqtisodietga_utadi

[2] Blueprint for a green economy: David Pearce, Anil Markandya and Edward B. Barbier. Earthscan, London, Great Britain, 1989. 192 pp

[3] Навстречу «зелёной» экономике: пути к устойчивому развитию и искоренению бедности / Штайнер А., Айрис Р., Бэсса С. И др: ЮНЕП/ГридАрендаль,2011. С. 17

[4] Навстречу «зелёной» экономике: пути к устойчивому развитию и искоренению бедности / Штайнер А., Айрис Р., Бэсса С. И др: ЮНЕП/ГридАрендаль,2011. С. 20

[5] <https://lex.uz/docs/-4168749?ONDATE=18.01.2019%2000>

AGROSANOAT KORXONALARIDA TOK KO‘CHATLARNI INTENSIV YETISHTIRISH USULLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI

*Xidirova Rushana Rustam qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi
m.xidirova@tsue.uz*

Annotatsiya

Bugungi kunda dunyoning yalpi uzum ishlab chiqarish bo‘yicha yetakchi o‘rinlarini egallab kelayotgan Xitoy, Italiya, AQSH va Fransiya kabi davlatlarda sanoat tokzorlari barpo qilish uchun viruslardan holi sog’lomlashtirilgan, yuqori mahsuldor, fillokseraga bardoshli sertifikatlangan ko‘chatlarini yetkazib berish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Kalit so‘zlar. Tok ko‘chatlari, fitosanitar, intensiv texnologiyalar, mikroqalamcha biotexnologik usul.

Qator davlatlarda tok ko‘chatlari hanuzgacha sanoat tokzorlaridan olingan qalamchalaridan yetishtirilgan sifatsiz ko‘chatlar hisobiga qondirilmoxda. Bunday ko‘chatlar bilan barpo qilingan tokzorlar hamma vaqt ham yuqori va barqaror hosil olish imkonini beravermaydi. Shu bois, sog’lomlashtirilgan tok ko‘chatlari yetishtirish imokonini beruvchi sog’lom ona tokzorlar barpo etish, birlamchi ekish materiali – qalamchalar tayyorlanadigan ona tokzorlarning fitosanitar holatini yaxshilash, biotexnologik usulda in vitro sharoitida ko‘chat olish, shuningdek noyob va qimmatli tok navlarini ko‘paytirishning intensiv texnologiyalarini ishlab chiqishga alohida e’tibor berilmoqda.

Tok ko‘chatlarini yashil va yog’ochlashgan qalamchalaridan jadal ko‘paytirish texnologiyalarini takomillashtirish, tokning sog’lomlashtirilgan ko‘chatlarini yetishtirish va ularni mikroqalamchalash usulida ko‘paytirish uchun eng maqbul ozuqa muhitlari tarkibini ishlab chiqish bo‘yicha AQSH, Germaniya, Turkiya, Hindiston, Rossiya va boshqa mamlakatlarda Debora Golino, Balo E., Prilesrhy G., Cansellier S., Cossio F., Galzy H., Compan D., L.V.Kravchenko kabi olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib, buning natijasida tok ko‘chatlarini parxishlash yo‘li bilan tezkor ishlab chiqarish usuli, tok ko‘chatlarini biotexnologik usulda in vitro sharoitida mikroqalamchalab ko‘paytirish uchun samarali ozuqa muhitlari, tok ko‘chatlarini yashil va yog’ochlashgan qalamchalaridan jadal ko‘paytirish texnologiyalari hamda tizimlari ishlab chiqarishga tatbiq etilmoqda.

Ona tokzorlarni himoyalangan va ochiq yer sharoitlarida barpo etish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar qalamchalarni himoyalangan yer sharoitlarida yetishtirish usulining afzalligini ko‘rsatdi.

Yashil qalamchalarning realizatsiya bahosining 70 so‘m/dona va yog’ochlashgan qalamcha bahosining 50 so‘m/dona ekanligi hisobga olinsa, u holda ochiq yerda barpo etilgan ona tokzorlardan chiqqan yalpi daromad 15,865 mln. so‘m/ga, himoyalangan joyda esa 29,330 mln. so‘m/ga ni tashkil etdi. Ko‘rinib turibdiki, uch yoshli ona tokzordan himoyalangan yerda 6,472 mln. so‘m/ga sof daromad olish mumkin, bu esa ochiq yerdagi ona tokzordan olingan daromadga nisbatan 1,9 marta yuqoridir.

Har bir yetishtirilgan qalamcha materialining tannarxi ochiq maydonda 33,54 so‘m/donaga teng bo‘ldi. Himoyalangan yerda qalamcha materialining birqancha ko‘p chiqishiga bog’liq ravishda uning tannarxi ham ochiq yerdagiga nisbatan kamroq bo‘ldi va u 18,71 so‘m/donani tashkil etdi.

Etishtirish sharoitlariga bog’liq ravishda tok ko‘chatlarini ishlab chiqarishga sarflanadigan moddiy xarajatlarni iqtisodiy jihatdan tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, himoyalangan yerda ham, ochiq yerda ham parxish usulida ko‘chat yetishtirish texnologik jarayoniga sarflanadigan moddiy va mehnat xarajatlari amalda bir-biriga yaqin ko‘rsatkichlarda bo‘ldi va u 28,049-31,234 mln. so‘m/ga oralig’ida o‘zgardi. Tok ko‘chatlari bahosining akademik M.Mirzayev nomidagi bog’dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot institutining ulgurji narxi bo‘yicha 800 so‘m/dona ekanligi hisobga olinsa, eng yuqori moddiy daromad ko‘chatlarni himoyalangan yer sharoitida yetishtirilgan variantda qayd etiladi. Ko‘chatlar vertikal parxishlash usulida yetishtirilgan variantda u 107,078 mln. so‘m/ga ni tashkil etgan bo‘lsa, gorizontal parxishlash usulida ko‘chat olingan variantda ushbu ko‘rsatkich 135,986 mln. so‘m/ga

ni tashkil etdi. Tok ko‘chatlari ushbu ikki usulda ochiq yer sharoitida yetishtirilganda esa olingan yalpi daromad himoyalangan yerdagi ko‘rsatkichlardan birqancha kamroq bo‘ldi.

Tok ko‘chatlari respublikada umumqabul qilingan texnologiya bo‘yicha yog’ochlashgan qalamchalaridan yetishtirilganda (nazorat varianti) standart ko‘chatlarning chiqishi eng kichik o‘lchamda bo‘ldi va 42577 dona/ga ni tashkil etdi. Demak, bunga bog’liq ravishda yalpi daromad ham eng quyi ko‘rsatkichda bo‘lib, ko‘chatlar realizatsiyasidan olingan jami mablag’ 51,056 mln so‘m/ga ga teng bo‘ldi.

Ko‘chat yetishtirishdan olingan eng yuqori sof foyda himoyalangan yerdagi ona tuplarni gorizontal parxishlash usulida qayd etildi, bunda ko‘chatlarning realizatsiyasidan olingan sof foyda 104,751 mln. so‘m/ga ni tashkil etdi. Aynan ushbu usul bilan ochiq yer sharoitlarida ko‘chat yetishtirilganda sof foyda 67,275 mln. so‘m/ga gacha yetdi. Ko‘chatlarning respublikada umumqabul qilingan texnologiya bo‘yicha yog’ochlashgan qalamchalardan yetishtirilganda olingan sof foydaning 23,864 mln so‘m/ga ga ekanligi qiyoslansa, tavsiya etilayotgan uslubga nisbatan u qariyb 3 barobar kam ekanligi qayd etiladi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Ochiq va himoyalangan yer sharoitlarida tok ko‘chatlarini parxishlash usullarida yetishtirishning iqtisodiy samaradorligi, so‘m/ga

Iqtisodiy ko‘rsatkichlar	Tajriba varianti – parxishlash usullarida ko‘chat olish				An’anavi y texnologi ya – nazorat	
	Himoyalangan joyda		Ochiq yerda			
	vertikal	gorizonta l	vertikal	gorizont al		
Tok tuplarini kesish va ko‘mish	5805000	5805000	5805000	5805000	5805000	
Bahorda tok tuplarini ochish	5950000	5950000	5950000	5950000	5950000	
Tuproqqa ishlov berish va o‘g’itlash	2975000	2975000	2975000	2975000	2975000	
Novdalarni gorizontal parxishlash va ko‘mish	-	3185000	-	3185000	-	
Maydonni sug’orishga tayyorlash	665000	665000	665000	665000	665000	
Vegetatsion sug’orish (8 marta)	168000	168000	168000	168000	168000	
Egatlarni kul’tivatsiya qilish va tuplarni okuchka qilish	420000	420000	420000	420000	420000	
Mineral o‘g’it berish	175000	175000	175000	175000	175000	
Sug’orish egatlarini ochish	392000	392000	392000	392000	392000	
Ona tuplarni kuzgi qazish	5950000	595000	595000	595000	-	
Tuplardan ildiz olgan parxishlarni kesish	2625000	262500	262500	262500	-	
Parxish ko‘chatlarni qazish, saralash va saqlash uchun	1277500	1277500	1277500	1277500	1277500	

ko‘mish					
Mineral o‘g’itlar bahosi	1647000	1647000	1647000	1647000	1647000
Jami xarajatlar	2804950 0	3123450 0	2804950 0	3123450 0	2719200 0
Standart ko‘chat chiqishi, dona/ga	133848	169983	115038	123138	42547
Ko‘chatlarning realizatsiya bahosi, so‘m/dona	800	800	800	800	1200
YAlpi daromad, so‘m	1070784 00	1359864 00	9203040 0	9851040 0	5105640 0
Sof foyda, so‘m	7902890 0	1047519 00	6398090 0	6727590 0	2386440 0
Ko‘chatlarning tannarxi, so‘m/dona	209	184	244	254	639
Ko‘chat yetishtirish rentabelligi, %	281	335	228	215	87

Etishtirilgan ko‘chatlarning tannarxi tadqiqotlarimiz natijasi asosida tavsiya etilgan uslublarda 209-254 so‘m/dona atrofida o‘zgardi, nazoratda esa ushbu ko‘rsatkich 639 so‘m/donaga teng bo‘ldi.

Ko‘chat ishlab chiqarishning rentabelligi tavsiya etilgan uslubda (himoyalangan yerda vertikal va gorizontal parxishlash) eng yuqori bo‘ldi va 215-335% atrofida o‘zgardi. Tok ko‘chatlari ushbu usulda yetishtirilganda ishlab chiqarish uchun sarflanadigan har mablag’ birligi hisobiga qariyb 3-4 marta ko‘proq foyda olish imkoniyati yuzaga keladi (2-jadvalga qarang).

2-jadval

Tok ko‘chatlarini sun’iy substratlarda yashil qalamchalardan yetishtirishning iqtisodiy samaradorligi, so‘m/ga

Iqtisodiy ko‘rsatkichlar	Substrat		
	qum + chirindi (1:3)	qum + taxta qirindi (1:2)	qum + sholi kepagi (1:3)
Elektr energiyasi	2739959	2739959	2739959
Suv	24000000	24000000	24000000
Polietilen plyonka	53200000	53200000	53200000
Kanop mato	59952000	59952000	59952000
Qum	10795440	10192000	10295300
CHirindi, taxta qirindi, sholi kepagi	10780000	5303703	7160544
Ammiakli selitra	369000	378425	385565
Superfosfat	1400000	1461712	1490976
Kaliy tuzi	200000	244429	218964
Qalamchalarni tayyorlash	3799980	3799980	3799980
Qalamchalarni ekish	6330000	6330000	6330000

Ko‘chatlarni kavlash va saralash	3496800	3235280	3070300
<i>Umumiy xarajatlar</i>	177062178	167602208	162573278
Standart ko‘chat chiqishi	582803	539214	511717
Bir ko‘chat bahosi	1200	1200	1200
YAlpi daromad	699363600	647056800	614060400
Sof foyda	522301422	479454592	451487122
Bir ko‘chatning tannarxi	303,8	310,8	331,3
Rentabellik, %	295	286	277

Tok ko‘chatlarini mikroiqlimi boshqariladigan maxsus inshootda yashil qalamchalaridan yetishtirishning iqtisodiy ko‘rsatkichlarini tahlil qilish ham ushbu usulning rentabelli ekanligini ko‘rsatdi. Tajribada tok ko‘chatlari yetishtiriladigan maxsus inshootning foydali maydoni 9500 m^2 ni tashkil etdi. Tayyorlangan substrat aralashmasi inshoot yeriga 15 sm qalinlikda to‘shaldi. Mavjud maydonni ta’minlash uchun ushbu substrat aralashmasi 1425 m^3 miqdorida tayyorlandi.

Dissertatsiya tadqiqoti bo‘yicha iqtisodiy ko‘rsatkichlar eng maqbul deb tan olingan substrat kombinatsiyasi – darayo qumi + chirindining 1:3, qum + taxta qirindisining 1:2 va qum + sholi kepagining 1:3 nisbatidagi aralashmalari bo‘yicha hisob qilindi

Daryo qumining chirindi, taxta qirindisi va sholi kepagi bilan aralashmasidan iborat substratlar tayyorlash uchun har bir variantga $53,97 \text{ m}^3$ qum va $161,93 \text{ m}^3$ miqdorida boshqa komponentlardan olindi. Ularning bahosi tajribada 15495703 dan 21575440 so‘m/ga gacha o‘zgardi.

Ozuqa substratlarining o‘simlik talabiga to‘la mos kelishi uchun ularga quyidagi miqdorda o‘g’itlar aralashtirildi: ammiakli selitra – 246 kg, superfosfat – 279,8 kg, kaliy tuzi – 39,8 kg. Tajriba variantlari bo‘yicha ushbu o‘g’itlarni xarid qilish uchun 1969000 dan 2095505 so‘m/ga gacha moddiy xarajatlar sarf qilindi. Inshootning ustini berkitish uchun polietilen pylonka va kanop mato talab etildi, ularning bahosi mos holda 53200000 va 59952000 so‘m/ga ni tashkil etdi

Qalamchalarni tayyorlash, ekish, elektr energiyasi va suv uchun jami 30539939 so‘m mablag‘ sarflandi. Ko‘chatlarni kuzda kavlab olish gektariga 3070300 dan 3496800 so‘mgacha moddiy mablag‘ sarflashni taqozo etdi.

Etishtirilgan ko‘chatlarning realizatsiya bahosi 1200 so‘m/dona, bu esa gektaridan 647,056 mln. dan 614,060 mln. so‘mgacha yalpi daromad olish imkonini beradi. Tok ko‘chatlarini daryo qumi va chirindining 1:3 nisbatidan iborat sun’iy substratda maxsus inshootda yetishtirish, ishlab chiqarish rentabellgini 295% gacha yetkazish imkonini berdi. Bu esa har bir sarflangan mablag‘ hisobiga o‘n bir marta ko‘proq foyda olish demakdir.

Qumning taxta qirindisi va sholi kepagi bilan aralashmasidan iborat substrat qo‘llanilgan tajriba variantlarida iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari avvalgi tajribaga nisbatan birmuncha pastroq bo‘ldi, ammo shunday bo‘lsada, ushbu usullar ham har bir sarflangan mablag‘ hisobiga o‘n martagacha ko‘proq foyda olish imkonini berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] X.Ch. Buriyev, N.Sh. Yenileyev va b. Mevali va rezavor mevali o'simliklar bilan tajribalar o'tkazishda hisoblar va fenologik kuzatuvlar metodikasi. – Toshkent, 2014. – 64 b.

[2] A. Mozafari, O. Ghoraishi, N. Ghaderi, T. Javadi Micropropagation of grape cultivars (*Vitis vinifera L.*) on Different Basal Media Supplemented with Benzyl Adenine. // *Agriculturae Conspectus Scientificus*. – Vol. 81. (2016). – No. 3. – P. 123-129.

[3] A.A. Batukayev, K.V. Smirnov Biotexnologicheskiye metodi uskorennogo razmnoveniya vinograda (in vitro). // *Sel'skoxozyaystvennyya biotekhnologiya*. – Moskva, 2001. – T-2. – S. 142-158.

[4] <http://statinformation.ru/sel/vinograd.html>

CORPORATE UNIVERSITY MODEL IN THE CONTEXT OF ECONOMIC TRANSFORMATION

Nasriddinov Xasan Baxtiyor o'g'li
PhD candidate of Tashkent state university of economics
x.nasriddinov@tsue.uz

Abstract

A corporate university is an educational system or educational support as a company or organization that enables teaching, development and learning for its own development. It corresponds to the quality of education, which focuses on the workforce, knowledge and skills for internal competence.

Key words: marketing, management, customer service,

Corporate universities are established to manage learning and management of organizations and organizations. They offer a wide range of training programs, courses and resources tailored to the company's strategic goals and tools. Take a variety of areas such as wellness programs, technical sales and marketing, management training, sales and marketing, customer service, and other job-related competencies.

The structure and activities of corporate universities differ in different organizations. Some corporate universities have physical campuses or training centers where classes, workshops or seminars can be attended. Others examine online learning platforms or a mix of in-person and online learning. Courses and programs offered may be facilitated by a combination of internal subject matter experts, organizational trainers, or a combination.

To employees of corporate universities:

Well, improving the skills and qualifications of the universities: It helps to get a new look and fix the existing opportunities by the corporates by providing their targeted programs. This allows them to perform their roles more effectively and contribute to the organization.

Development of continuous learning: The corporate promotes continuous learning and professional culture within the company. Encourages them to pursue